

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ



**НАМАНГАН ДАВЛАТ
УНИВЕРСИТЕТИ
ИЛМИЙ АХБОРОТИ**

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ОЛИЙ ВА
ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

ИЛМИЙ АХБОРОТИ

НАМАНГАН - 2014

МУНДАРИЖА

ТАБИИЙ ФАНЛАР

1. V.G.Azizov. Og`iz bo`shlig`ining patogen mikroflorasi.....	9
2. Э.Ф.Икромов, К.Ниязов, М.Эгамбердиев. Биологическая циркуляция некоторых трематод (trematoda) амфибий Узбекистана.....	11
3. М.Х.Абдувалиева, А.Ф.Тожибоев. Рентгеноструктурный анализ учун кристаллар ўстириш усуллари.....	13
4. Ш.Х.Юсупова, И.А.Иброхимов. Қушларнинг энергетика корхоналарига зарари.....	17
5. Э.Воҳидов. Шимолий Фарғона канали альгофлорасининг биологик спектри.....	20
6. S.T.Abdurahmanov., D.I.Isoqov. Qurg`oqchil hududlardan foydalanish muammolari.....	23
7. M.Lutpillayeva. Suvni kimyoviy tozalash.....	25
8. С.А.Мавланова, И.А.Иброхимов. Аллергик касалликларни келиб чиқишига атроф муҳит ва ўсимликларнинг таъсири.....	27
9. О.Н. Имомов. Хавфсизлик маданияти муаммолари.....	30
10. И.Т. Қодиров. Бўйрак –тош касалликлари,ва унинг даволаш йўллари..	31
11. М.Р.Қориев. Наманган вилояти адирларида лалми боғдорчилик имкониятлари.....	33
12. В.Ф.Азизов, С.Т.Фофурова. Академик лицейларда генетикани ўқитишда дидактик ўйин технологияларидан фойдаланиш.....	37
13. D.I.Isoqov. “NamDU plyuviografi” meteorologik qurilma.....	41
14. М.Р.Қориев. Ноанъанавий усулда ҳосил олиш.....	43
15. D.Dehqonov, M.Lutpillayeva. Suvni biologik tozalash.....	45
16. S.A.Mavlanova., I.A.Ibrohimov. Kaltsiy suyaklar mustahkamligini ta`minlovchi asosiy elementdir.....	47
17. O.Sodiqova. Irsiy va tug`ma kasalliklar qanday kelib chiqadi?	49
18. N.Abdullayev., M.Murodov. Xitozan va karboksilmetilselyulozaning ikki detektorli eksklyuzion xromotografiyasi.....	51
19. Ф.Акбаров. Фарғона водийси дарё ҳавзаларининг геоэкологик ҳолати.	53
20. О.Н. Имомов. Айрим ёввойи ем – хашак ўсимликларининг Чуст – Поп адирлари шароитида илдиз системасининг морфологик шаклланиши.....	55
21. S.A.Mavlanova I.A.Ibrohimov. Tashqi muhit omillarining yurak faoliyati va qon bosimiga ta'siri.....	58
22. Мамасалиев З.Н., Тухтабаев И.Т., Мамасалиев Н.С., Курбонова Р.Р., Мамасалиева Ш.А., Хошимова Д. Климатобиоритмопатогенетические	60

ning aniqlik darajasi bir-oz pastroq. Shuning uchun biz "NamDU plyuviografi" nomli yog`in o`lchagich asbobini yasashga kirishdik va ma`lum miqdoriga muvaffaqiyatli erishdik. Bunda biz asosan yozuv lentasi maxkamlanuvchi, bir sutkada bir marta aylanib chiquvchi barograf barabanidan foydalandik va barabanni aylanasining uzunligini birmuncha kattalashtirdik. Chunki "NamDU plyuviografi" barabanining aylanasi uzunligi katta bo`lishining sa-

babi, qurilma xarakati davomida uning tezligi yuqori va lentadagi troektoriyani aniqlash birmuncha qiyinlik tug`diradi.

"NamDU plyuviografi" ning afzallik tomonlari shundagi qulay, MDH mamlakatlarida va jahon mamlakatlarida bunday qurilma haligacha aniqlanmagan, arzon, ma`qul joy (tog`li rayonlarga, imkoniyati mayjud joy) larga, kollej, tashkilot va muassasalarga ham joylashtirib, yog`ingarchiliklarni o`lchasa bo`ladi.

НОАНЪАНАВИЙ УСУЛДА ҲОСИЛ ОЛИШ

М.Р.Қориев

НамДУ география йўналиши 4-босқич талабаси.

Ҳар қандай жамиятда ер энг қимматли ресурс ҳисобланади. Айниқса аҳоли сони зич бўлган минтақа ва мамлакатларда ернинг баҳоси жуда юқори. Бундай хусусиятни биз Республикамиз ҳудудининг атига 4%дан сал ортиқроқ қисмини егаллагани ҳолда, Ўзбекистон аҳолисинининг 23% ини ўзида жамлаган Фарғона водийсида* ҳам кузатишимиз мумкин. Шунинг учун Фарғона водийсида, яъни Андижон, Фарғона ва Наманган вилоятларида аҳоли ҳовли-жойларининг аксарият қисми 4-6 сўтиқ ердан ошмайди. Мана шундай кичик ҳовли жойларда рўзғор учун кунда зарур бўлган экинлардан ҳосил олиш ҳам анча енгиллик яратади. Бу хусусда бор имкониятдан янада тўлароқ фойдаланишга инти-

лиш лозим. Бунда томдан фойдаланиш ҳам мумкин.

Бунинг учун биз баландлиги ва ички қисмининг дияметри 0,5 метр бўлган 15та қоп таёрлаб олдик. Уларга 1x1 нисбатда маҳаллий ўғит ва тупроқ аралашмасидан солиб тўлғаздик. Унумдорликни ошириш учун ҳар бир қопга 250-300 граммдан аммофос минерал ўғитидан солиб аралаштирдик. 15-апрел куни бир дона қопга бир тупдан униб чиққан бодринг кўчатларини ўтказдик. Орадан 3 кун ўтгач кўчатлар кўкариб тупроққа мослашиб олди. Сўнг биз уларни тор ҳовлида жой ўғирлаб турганлиги боис, Қуёш нури узок вақт ёритиб турадиган уй томининг юқори қисмига олиб чиқиб кўйдик. Дастлабки бир ой давомида ҳаво харорати илиқ бўлгани сабабли ҳар бир кўчат остига кунига бир литрдан сув қуйиб турдик. Сўнг, бодринг

* Фарғона водийсининг фақатгина Ўзбекистонга қарашли қисмигина назарда тутилмоқда

кўчатлари ҳосилга киргач, эрталаб ва кечга яқин бир литрдан, яъни кунига икки литрдан сув қуйиб турдик.

Кўчатлар май ойининг дастлабки кунларида гуллай бошлади. Мева туғиш 10-майда кузатилди. Май ойининг ўрталарига бориб барча



1-расм

Июн ойида ҳаво ҳарорати юқори бўлганлиги боис, тупроқдаги намлик тез камайиб кета бошлади. Натижада кўчатларнинг барглари айни кун қизиган туш пайтида сўлишиб қолди. Кечга яқин эса ҳарорат пасайгач яна ўз холига қайтди (3-4-расмлар). Бундай ҳолат 10-15 кун кетма-кет такрорланиши оқибатида июн ойининг



3-расм

охирларига борганда ҳосилдорлик камайиб, кўчат барглари сарғая бошлади. Июл ойига ўтганда кўчатлар

кўчатлар тўлақонли ҳосилга кирди ва улардан кунига ўртача 1,5-2 кг дан ҳосил йиғиб олинди.

Тажрибада айрим бодринг кўчатларининг меваси кўп, аммо майда, айримлариники эса меваси кам, аммо йирик бўлди (1-2-расмлар).



2-расм

бирин кетин қурий бошлади ва шу ой охиригача барчаси қуриб қолди.

Шундай қилиб, еккан бодринг кўчатларидан деярли 30-40 кун давомида ҳосил олиб турдик. Агарда йўл қўйилган хато ва камчиликлар бартараф этилса деярли 2-3 ой давомида ҳосил олиш имкони мавжуд экан.



4-расм

Биз тажрибада кўчатларни экиш учун қоплардан фойдаланган эдик. Бунинг ўрнига хонаки гулларни

ўстириш учун ишлаб чиқарилган йирик хажмдаги идишлардан фойдаланиш мақсадга мувофиқ. Бундан ташқари шундай идишларга экилган кўчатларни нафақат томга, балки, Қуёш нури узоқ вақт тушиб турадиган уйнинг маълум бир қисмларига ҳам жойлаштириш мумкин.

Бундай йўл билан фақат бодринг эмас, помидор, бақлажон, булғор қалампери ва бошқа екинларни ҳам етиштириш мумкин. Бундай микрогеографик тадқиқотларнинг аҳоли учун аҳамияти катта.

SUVNI BIOLOGIK TOZALASH

D.Dehqonov

M.Lutpillayeva

Namangan davlat universiteti Tabiiy fanlar va geografiya fakulteti Kimyo yo'nalishi II bosqich talabasi

Ma'lumki, suv tirik organizmlar uchun muhim ahamiyatga ega. Ba'zi hujayralarni 95-98 foizgacha suv tashkil qilishi hamda aksariyat biologik sistemalardagi reaksiyalar suvli muhitda borishini hisobga olsak, xalqimizning "Suv bor joyda hayot bor" degan oqilona naqli naqadar to'g'ri ekanligini anglaymiz. Ayni paytda oqava suvlarni tozalashda asosan mexanik, kimyoviy va biologik usullardan foydalanib kelinmoqda.

Tabiatda suvni biologik usul bilan tozalashda daryo trassalari va tekis maydonlardan foydalaniladi. Chunki iflos suv tuproq orqali o'tganda zararli moddalar tuproq qatlamida qoladi. Bir necha ming suv havzasi bir-biri bilan tutashgan bo'lsa tozalash yanada samaraga ega bo'ladi. Buning sababi esa tingan iflos suv bir havzadan ikkinchi bir havzaga o'tganda tozlanib o'tadi. Iflos suvni biologik usulda sun'iy sharoitda tozalash uchun maydoncha-

larga maxsus qurilmalar quriladi. Yirik va o'rta kattalikdagi materiallar ustida turli qalinlikda aerob mikroorganizmli biologik plyonka qoplanadi va iflos suv shu materillardan o'tkaziladi. Natijada biofiltr suvdagi turli zararli moddalarni olib qoladi va suvni toza holda chiqaradi.

Aerob va anaerob mikroorganizmlar oqava suvlarda uchraydigan organik moddalardan tozalash xususiyatiga ega. Achitqi, neftni qayta ishlash zavodi, sut va sut mahsulotlari ishlab chiqaruvchi korxonalar, kraxmalni qayta ishlovchi zavodlardan chiqadigan chiqindilarni anaerob jarayon yordamida tozalash ko'proq samaraga ega. Bu jarayonda faol biologik komponentlar qayta ishlatiladi, qoldiq mahsulotlar kamayadi hamda noxush hidlar tarqalishi kamaytiriladi.

Bulardan tashqari suvlarni tozalashda mikroob shtammlaridan foydalaniladi.